



O‘QUVCHILARNI TOVUSHLAR VA HARFLAR, UNLI VA UNDOSH TOVUSHLARNING XUSUSIYATLARI BILAN TANISHTIRISH

Qahramonov Aliboy Yolgoshevich

Filologiya fanlari nomzodi, ISFT instituti katta o‘qituvchisi

Hamdamova Sevara Qahramonovna

ISFT instituti Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti 3-kurs talabasi

Hojiyeva Shaxnoza Ilxomjon qizi

Abdukarimova Lola Toxirovna

ISFT instituti Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti 4-kurs talabalari

Annotatsiya: Bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ta‘lim tizimi ham tubdan yangilanmoqda, unga yangi texnologiyalar, o‘qitishning zamonaviy usullari kirib kelmoqda. Ta‘limning asosiy ustuni hisoblangan boshlang‘ich ta‘lim ham yangi metodikalar bilan boyib bormoqda. Boshlang‘ich ta‘limda o‘quvchilarga savod o‘rgatish asosiy hisoblanadi. Ushbu maqolada o‘quvchilarni tovushlar va harflar, unli va undosh tovushlarning xususiyatlari bilan tanishtirish masalalari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: savod, fonetika, bilim, harf, tovush, unli, undosh, o‘qish, tarbiya, yozuv, maktab, so‘z, bo‘g‘in.

Kichik yoshdagi o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqni egallashlarida fonetikadan olgan bilimlarining ahamiyati katta:

a) fonetik bilimga asoslangan holda I sinf o‘quvchilari savod o‘rganish davrida o‘qishni va yozishni bilib oladilar;

b) fonetik bilim so‘zni to‘g‘ri talaffuz qilish (tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, urg‘uli bo‘g‘inni ajratish, orfoepik me‘yorga rioya qilish) asosini tashkil etadi;

v) fonetik bilim morfologik va so‘z yasalishiga oid bilimlar bilan birga o‘quvchilarda qator imloviy malakalar (jarangsiz va jarangli undoshlarning yozilishi) shakllantirish uchun zamin bo‘ladi;

g) fonetik bilim gapni ohangiga ko‘ra to‘g‘ri aytish, logik urg‘u va gap qurilishidagi to‘xtamlarga rioya qilish uchun zarur;

d) so‘zning tovush tomonini bilish uning ma‘nosini tushunish va nutqda ongli qo‘llash uchun muhimdir; hózir va hozúr, átlas va atlás so‘zlari ma‘nosidagi farq faqat urg‘u orqali ajratiladi. So‘zning tovush tomonini tasavvur qilish so‘zlarni talaffuzda farqlash, ayrim so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish va qo‘llash uchun zarur.

O'qituvchi boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan barcha fanlarga oid darslarda so'zni aniq va to'g'ri talaffuz qilish ustida doimiy ishlab boradi, shu maqsadda ko'pincha so'zni tovush tomondan tahlil qilishdan foydalanadi.

Maktab dasturiga muvofiq, boshlang'ich sinf o'quvchilari fonetik-grafik ko'nikmalar tizimini hosil qiladilar: tovushlar va harflar, unli va undosh tovushlar, jufti bor jarangli va jarangsiz undoshlar, jufti yo'q jarangli va jufti yo'q jarangsiz undoshlar; so'zni bo'g'inlarga bo'lish, urg'uli bo'g'inni ajratish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Bolalar maktabga kelgunga qadar ham nutqning tovush qurilishini amaliy o'zlashtiradilar, ammo ular maxsus o'qigunlariga qadar so'zni bo'g'inlarga bo'lishni, so'zdagi tovushlarni izchil talaffuz qilishni bilmaydilar.

I sinf o'quvchilarida so'zni to'g'ri talaffuz qilish, bo'g'inlarga bo'lish, undagi har bir tovushni tartibi bilan aniq aytish ko'nikmasini shakllantirish ustida maqsadga muvofiq ishlash, o'z navbatida, analiz, sintez, taqqoslash, guruhlash kabi aqliy mashqlarni bilib olishga, shuningdek, tovushlarning tabiati, so'z tarkibida bir-biriga ta'siri kabi ayrim elementar bilimlarni o'zlashtirishga imkon beradi.

I sinfda fonetika va grafikani o'rganishga katta o'rin beriladi, chunki o'quvchilar o'qish va yozish jarayonini shu sinfda egallaydilar. Bu bilimlar keyingi sinflarda mustahkamlanadi, takomillashtiriladi.

Tovush murakkab tushuncha bo'lgani uchun boshlang'ich sinflarda unga ta'rif berilmaydi. SHunga qaramay, bolalarda tovush haqida to'g'ri ilmiy tasavvur amaliy mashqlar yordamida hosil qilinadi. Bunda yetakchi usul so'zdagi tovushlarning talaffuzi hamda so'zning leksik ma'nosi so'zdagi tovushlarning tarkibiga bog'liqligi ustida kuzatish hisoblanadi. Masalan, *aka, uka, opa, ona, ota, kul, gul, qora, qara* kabi bir unli yoki bir undosh bilan farqlanadigan so'zlar har xil lug'aviy ma'noni ifodalaydi.

So'zning tovush tarkibi ustida ishlash savod o'rgatish davridanoq boshlanadi. Bolalar bu davrda talaffuz qilingan yoki eshitilgan so'z tovushlardan tuzilishini bilib oladilar. Ular so'zni tovush tomonidan tahlil qilishga o'rganadilar, ya'ni so'zni bo'g'inlarga bo'ladilar, so'zdagi tovushlarni tartibi bilan aytadilar. Bunda tovush tomondan tahlilni harf tomondan tahlil bilan aralashtirmaslikka alohida ahamiyat beriladi.

So'zning tovush tarkibini to'g'ri tasavvur etish undagi harflarni tushirib qoldirmay yoki o'rnini almashtirmay yozish malakasini shakllantirish uchun ham, so'zni to'g'ri talaffuz qilish uchun ham katta ahamiyatga ega. SHuning uchun savod o'rgatishdan so'ng ham so'zni tovush tomondan tahlil qilish mashqlari yordamida

soʻzdagi tovushlar tarkibini aniqlash koʻnikmasini takomillashtirish ustida ishlab borish zarur.

Maʼlumki, nutq tovushlari ikki katta guruhga boʻlinadi: *unli tovushlar* va *undosh tovushlar*. Buni oʻquvchilarga tushuntirishda ularning quyidagi belgilari hisobga olinadi:

1) talaffuz qilinish usuli (unli tovush talaffuz qilinganda havo oqimi ogʻiz boʻshligʻidan erkin ravishda oʻtadi, undosh tovush talaffuz qilinganda, havo ogʻiz boʻshligʻida toʻsiqqa uchraydi);

2) ovoz va shovqinning ishtiroki (unli tovushlar faqat ovozdan iborat, undosh tovushlar talaffuz qilinganda shovqin eshitiladi, baʼzan shovqin va qisman ovoz eshitiladi);

3) boʻgʻin hosil qilish xususiyati (unli tovushlar boʻgʻin hosil qiladi, undosh tovushlar boʻgʻin hosil qilmaydi).

Oʻquvchilar bu belgilarni yodlab olishlariga yoʻl qoʻymaslik, aksincha, 1-sinf danoq bolalarda tovushni talaffuz qilganda, ovoz yoki shovqin eshitilganda nutq aʼzolarining vaziyatini kuzatish koʻnikmasini oʻstirib borish lozim. Bunday kuzatishlar IV sinfda davom ettiriladi va umumlashtiriladi.

Tovushlarni oʻzlashtirishga bunday yondashish, unli va undosh tovushlarni puxta oʻzlashtirishga imkon berishi bilan birga, oʻquvchilarning aqliy qobiliyatini oʻstirish vazifasini ham bajaradi; xususan, bolalar kuzatilgan hodisaning bir necha belgilarini taqqoslashga, umumlashtirishga oʻrganadilar.

Oʻzbek tili yozuvi tovush yozuvi hisoblanadi, chunki tovush yozuvda harflar bilan ifodalanadi. 1-sinf oʻquvchilari quyidagilarni bilib olishlari lozim:

- a) tovushni talaffuz qilamiz va eshitamiz;
- b) harfni koʻramiz, oʻqiymiz va yozamiz;
- v) harf – tovushning yozuvda ifodalanadigan belgisi.

Oʻquvchilar koʻpincha tovush bilan harfni aralashtirib, xatoga yoʻl qoʻyadilar. Ularda grafik malakani shakllantirish uchun quyidagilarni oʻrgatish zarur:

1) bir undosh harf yozuvda ikki undosh tovushni ifodalashi mumkin (masalan, *maktab* soʻzidagi *b* harfi *p* tovushini, *maktabim* soʻzidagi *b* harfi *b* tovushini ifodalaydi);

2) *joʻja*, *jajji* soʻzlaridagi *j* tovushi (jarangli, portlovchi) ham, *jurnal*, *vijdon* soʻzlaridagi *j* tovushi (jarangli, sirgʻaluvchi) ham bitta *j* harfi bilan ifodalanadi;

3) *tong*, *keng* soʻzlaridagi uchinchi jarangli undosh tovush (*ng*) ikki harf birikmasi (*ng*) bilan ifodalanadi;

4) *sh*, *ch* harf birikmalari ham bir tovushni ifodalaydi (shamol, choy).



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dehqonova M.U., Djanaliyeva G.A. Ta'lim metodlarini tanlash mezonlari va muammolari. Ta'lim texnologiyalari. T., 2006-yil
2. Mehridinov Z. Isamuhammedov O. "Boshlang'ich ta'lim saboqlari" Toshkent 2014.
3. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: Bayoz, 2022
4. M.Yo'ldoshev. O'zbek tili praktikumi (1-qism). Toshkent: TDPU. 2005
5. Oripov B. T. Darslarning samaradorligini oshirish yo'llari. Toshkent: 1983-yil.
6. Roziqov O., Og'ayev S., Mahmudov M., Adizov B. Ta'lim texnologiyasi. – T.: O'qituvchi, 2002.